

## **BILIMLI, QOBILIYATLI VA ISTE'DODLI TALABALARNI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

*Isabayeva Dilfuza Komiljonovna,*  
*Buxoro Davlat Pedagogika Instituti "Pedagogika" kafedrası tayanch doktoranti(PhD)*  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.02.1.025>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va rag'batlantirish uchun muhit yaratish zarurligi, iste'dod bilan ishlash usullari, qobiliyat va iste'dod sohalari, qobiliyat va iste'dodning o'rni va amaliyotdagi qiyinchiliklar, talabaga ishonchni singdirish va kerak bo'lganda ularga yordam berish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Talabaning o'zini namoyon qilish uchun imkoniyat va sharoit yaratish muammolari ko'rib chiqiladi, iqtidorli bolalarni aniqlash tamoyillari aniqlanadi. Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash, iqtidorning rivojlanishini tashxislash, tarbiyaviy ishlarning mazmunini tashkil etish shakllari va usullari o'rganiladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada o'quv amaliyotida bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalar bilan ishlashdagi muammolar, bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarlarga xos bo'lgan o'quv muammolari, ta'lim sohasidagi muammolar va yechimlar aniqlandi*

*Tayanch iboralar: bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talaba, ilmiy va ijodiy faoliyat, o'quv faoliyati, diagnostika, o'quv muammolari, yechimlar, rivojlanish, motivatsiya.*

## **ПРОБЛЕМЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ЗНАЮЩИХ, КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ И ТАЛАНТЛИВЫХ СТУДЕНТОВ**

*Исабаева Дильфуза Комилжоновна,*  
*Бухарский государственный педагогический институт, кандидат педагогических наук,*  
*кафедра «Педагогика»*

*Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость создания среды для выявления, развития и мотивации образованных, способных и талантливых студентов, методы работы с талантами, области способностей и таланта, роль способностей и таланта и трудности на практике, возможности уверенности студентов в поглощать и помогать им, если это необходимо, обсуждаются. Рассмотрены проблемы создания возможностей и условий для самовыражения учащихся, определены принципы выявления одаренных детей. Изучены формы и методы выявления знающих, способных и талантливых учащихся, диагностики развития таланта, организации содержания воспитательной работы. Кроме того, в данной статье обозначены проблемы работы с образованными, одаренными и одаренными учащимися в образовательной практике, образовательные проблемы, характерные для образованных, талантливых и талантливых учащихся, проблемы и пути их решения в сфере образования.*

*Ключевые слова: образованный, способный и талантливый студент, научная и творческая деятельность, учебная деятельность, диагностика, учебные проблемы, решение, развитие, мотивация.*

## **PROBLEMS OF IDENTIFYING AND DEVELOPING KNOWLEDGEABLE, SKILLED AND TALENTED STUDENTS**

*Isabayeva Dilfuza Komiljonovna,*  
*Bukhara State Pedagogical Institute, Ph.D., Department of «Pedagogy»*

*Abstract: In this article, the need to create an environment for identifying, developing and motivating educated, capable and talented students, methods of working with talent, areas of ability and talent, the role of ability and talent and difficulties in practice, student confidence opportunities to absorb and help them if needed are discussed. The problems of creating opportunities and conditions for student self-expression are considered, the principles of identifying gifted children are determined. Forms and methods of identifying knowledgeable, capable and talented students, diagnosing the development of talent, organizing the content of educational work are studied. In addition, this article identifies the problems of working with educated, talented and talented students in educational practice, educational problems specific to educated, talented and talented students, problems and solutions in the field of*

education.

*Key words: knowledgeable, capable and talented student, scientific and creative activity, educational activity, diagnostics, educational problems, solutions, development, motivation.*

Kirish. Bugungi kunda jahon mamlakatlari o'quv amaliyotida talabalarning bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodlilikiga qarab ta'lim berish sistemasi ishlab chiqilmoqda. Bunda asosan qobiliyatli va iste'dodli (bilim jihatdan o'ziga xoslikka ega, nostandart, kutilmaganlik muammolarga yechim taklif qilish xususiyatiga ega bo'lgan) talabalarga, shuningdek, ijodiy rivojlanishning komponentlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababi ham bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va rag'batlantirish uchun sharoit yaratish zaruriyati mavjudligi, qobiliyatli va iste'dodli talabalar bilan ishlash usullari, talabaga ishonchni singdirish va kerak bo'lganda unga yordam berish imkoniyatlari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli va samarali bo'lishida asos bo'la oladi.

Ta'lim jarayonida bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalar bilan ishlashda quyidagi muammolarga duch kelish mumkin:

bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalar uchun ta'lim jarayonidagi muammolar;

bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarning kognitiv va shaxsiy xususiyatlaridagi muammolar;

Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalar uchun ta'lim jarayonidagi muammolar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Tengdoshlari bilan muloqotning yo'lga qo'yilmaganligi
2. Salomatligi bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin
3. Hissiy jihatdan sezgir (hissiyotga tez beriluvchan)
4. Giperaktiv.
5. Dangasalik.
6. Faoliyatni tez-tez o'zgartirishga ehtiyoji mavjud.
9. O'qituvchilarning ular bilan ishlashi qiyinligi

Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarning kognitiv va shaxsiy xususiyatlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

1-jadval

No	Kognitiv soha	Shaxsiy xususiyatlar sohasi
1	Fikrlashning o'ziga xosligi	Topshiriqqa sabrli bo'lish
2	Fikrlashning moslashuvchanligi	Mukammallik
3	Yangiliklar yaratuvchanlik	Ijtimoiy aloqa
4	Analiz va sintez qilish qobiliyati	Yetakchilik
5	Tasniflash	Raqobatdoshlik
6	Diqqatning yuqori konsentratsiyasi	Qiziqish kengligi
7	Kuchli xotira	Xushmuomalalik

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va rag'batlantirish jarayonida pedagogik jarayonning turli ishtirokchilari, shuningdek, ota-onalar ham ishtirok etadilar.

Qobiliyatli va iste'dodli bolalarni aniqlashda A.I.Savenkov umumiy iste'dodni baholash usulini taklif qildi. A.I.Savenkovning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida bilimli, qobiliyatli va iste'dodli bolalarni aniqlashda nazariy asos sifatida sinov jarayonidan o'tgan to'rtta asosiy komponent aniqlangan (iqtidor tushunchasi, iqtidorlilik diagnostika uchun dasturiy va uslubiy vositalar, iste'dodni rivojlantirish, o'quv ishining mazmunini tashkil etishning psixologik shakllari va rivojlantirish usullari). Moskva shahrida uzoq muddatli izlanishlar natijasida "Iqtidorli bolalar" maqsadli dasturi va uning kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bu dastur asosida bilimli, qobiliyatli va iste'dodli bolalarni aniqlash, o'qitish va qo'llab-quvvatlash tizimi tashkillashtirildi.

Ta'lim jarayonida qobiliyatli va iste'dodli talabalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishadi:

Qiziqish (bilimga bo'lgan ehtiyoj) Qobiliyatli va iste'dodli bolalar yanada ko'proq yangiliklarni bilishga, bilimlarga ega bo'lishga harakat qilishadi.

Muammolarga e'tiborlilik. Ko'p bolalar tomonidan yechilishi murakkab bo'lgan masalalar va muammoli vaziyatlarga ishtiyoqmand bo'lishadi.

Taxmin qilish qobiliyati - muammoni hal qilishdan oldin natijani ko'ra olish qobiliyati uni amalga oshirishdan oldin harakatning mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilishdir.

Baholash qobiliyati. Bu o'z fikrlari va harakatlarini to'g'ri baholay olish qobiliyatini anglatadi.

Yangiliklar yaratish.

Mantiqiy fikrlash va fikr yuritish qobiliyati

Qat'iyat

Natijalarga bo'lgan talab - bu ularning o'z natijalari juda yuqori va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Rus olimalaridan biri bo'lgan Z.M. Batdiyevaning ilmiy-tadqiqot ishlarida iste'dod va qobiliyat, bolalar iste'dodi va qobiliyati, iste'dod va qobiliyat belgilari, aqliy qobiliyat tushunchalari, bilimli, qobiliyatli va iste'dodli bolalarni aniqlash va ular uchun ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan.

Muhokama va natijalar. Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash bu juda murakkab jarayon bo'lib, ularga har tomonlama kompleksli yondashuv asosida o'rganish talab etiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bilimli, qobiliyatli va iste'dodli bolalarni aniqlashning quyidagi tamoyillari bo'lishi mumkin:

1) bolaning xatti-harakati va faoliyatining turli tomonlarini har tomonlama kuzatish orqali kompleks baholash. Bu iloji boricha turli xil ma'lumotlar manbalaridan foydalanishga va turli qobiliyatlarni qamrab olishga imkon beradi.

2) uning qobiliyatlari va qiziqishlari yuqori bo'lgan faoliyat sohalaridagi xatti-harakatlarini tahlil qilish (shu jumladan bolani maxsus tashkil etilgan fan to'garaklariga jalb qilish, shuningdek uni turli xil maishiy ishlarga jalb qilish)

3) muayyan rivojlantiruvchi ta'lim usullaridan foydalanish boladagi ma'lum bir psixologik va pedagogik "to'siqlarni" olib tashlashi mumkin.

4) qobiliyatli va iste'dodli bolalar bilan ishlash jarayonida hamma birdek yondashishi lozim, ya'ni o'qituvchilar va oila a'zolari ham.

Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlashning turli usullaridan foydalanish mumkin: talabalarni kuzatish usuli (auditoriyada va auditoriyadan tashqarida);

maxsus psixodiagnostik treninglar orqali;

o'qituvchilar va ota-onalar bilan suhbatlar natijasida;

maxsus o'yinlar va mavzuga yo'naltirilgan darslar orqali;

mutaxassislar tomonidan talabalar ijodiy faoliyatining o'ziga xos mahsulotlarini ekspert baholash (chizmalar, she'rlar, texnik modellar) orqali;

turli intellektual va ilmiy olimpiadalar, konferensiyalar, sport musobaqalarini tashkil etish, shuningdek tanlovlar, festivallar va boshqalardagi faoliyatini tahlil qilish orqali;

Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalar bilan ishlash quyidagi bir-biriga bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi:

1. Talabalarning bilimi va iste'dodini namoyon qilishga yordam beradigan maxsus ijodiy muhit yaratish, shuningdek yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish;

2. Talabalar bilan ishlash (kuzatish, tekshirish, bolalar ijodini tahlil qilish);

3. Ota-onalar bilan ishlash (suhbatlar, so'rovlar).

Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Muayyan faoliyatga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash.

2. Bilim, qobiliyat va iste'dod uchun sharoitlarni aniqlash.

3. Talaba kreativligining rivojlanish darajasini aniqlash (ijodiy qobiliyatlar).

A.I.Savenkov tomonidan ishlab chiqilgan "iste'dod xaritasi" asosan ota-onalar uchun mo'ljallangan bo'lib, lekin o'qituvchilar ham foydalanishi mumkin edi. Bu 5 yoshdan 10 yoshgacha

bo'lgan bolalarning intellektual, ijodiy, akademik, badiiy, musiqiy, badiiy, texnik, sport. bo'yicha rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi. "Iste'dod xaritasi" ikkita funktsiyani bajaradi:

1. Iste'dodni aniqlash. Ushbu bosqichda boladagi turli qobiliyat va iste'dodni aniqlash.
2. Iste'dodni rivojlanish. Bolada mavjud bo'lgan qobiliyat va iste'dod ustida yana ko'proq ish olib borish.

Ta'lim jarayonida quyidagi muammolar va ularning yechimlariga e'tibor qaratishimiz kerak. (2-jadvalga qarang)

2-jadval

№	Muammo	Yechim
1	Ta'lim maskanlarida pedagogik va psixologik malakalari yetuk o'qituvchilarning yetishmasligi.	O'qituvchilarning pedagogik va psixologik malakalarini tekshirib turish.
2	Avtoritar uslubdagi o'qituvchilarning ta'siri.	O'qituvchilar tomonidan demokratik uslubdagi darslar va seminar-treninglar tashkil etish.
3	Bo'sh o'zlashtiruvchi bolaning orqada qolishi.	Talabning darajasiga qarab topshiriqlar berish o'zlashtirishiga e'tibor berish, o'ziga ishonchini shakllantirish.
4	Ta'lim muassasalarida fizika, kimyo, biologiya kabi fanlarda laboratoriya ishini tashkil etishdagi kamchiliklar.	Zamonaviy laboratoriya xonalari va asbob-uskunalaridan foydalanish.
5	Ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda texnik vositalardan foydalanishning yetarli emasligi.	O'qituvchilar va talabalar tomonidan tayyorlangan qo'l ishlaridan foydalanish.
6	Talaba nutqidagi kamchiliklar.	Talabalarga o'qish texnikasini o'rgatish va yil davomida "Eng yaxshi kitobxon" tanlovlarini muntazam o'tkazish.

Ta'lim jarayoni faqat bolaga bilim berish bilangina cheklanmaydi. Ta'lim jarayonida talaba ham o'qituvchini hurmat qilish, sinfdoshlarini tinglash kabi tarbiyaviy jihatlarni ham egallaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabning qobiliyatlarini va iste'dodini aniqlash va rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga, ya'ni ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik muhit va individual muloqotini o'rganib chiqish, ta'limni axborot texnologiyalariga asoslangan kontentlar bilan boyitish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishdan iborat, shuningdek, talabalarning shaxsiy rivojlanishini inobatga olish, ularning jamoada va individual yondashuv asosida ishlashiga e'tibor berish va ularning o'sishini muntazam rag'batlantirib boorish lozim.

So'nggi yillarda yoshlar iste'dodi va iqtidorini aniqlash va rivojlantirish muammolariga qiziqish ortib bormoqda. Bolalarning iste'dodi va qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirish mamlakatning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishga hissa qo'shadi. Shu sabali ham, iste'dodli va qobiliyatli yoshlardagi muammolar; ularning bilim salohiyati, iqtidorli talabalarning shaxsiy xususiyatlari ta'lim jarayonidagi muammolari o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Савенков Александр Ильич. Развитие детской одаренности в условиях образования. Москва 2002. <https://www.dissercat.com/content/razvitie-detskoi-odarennosti-v-usloviyakh-obrazovaniya>.
2. Карпова, Светлана Ивановна. Управление общеобразовательной школой как фактор развития детской одаренности. Москва 2013. <https://www.dissercat.com/content/upravlenie-obshcheobrazovatelnoi-shkoloi-kak-faktor-razvitiya-detskoi-odarennosti>
3. Щербанова Елена Игоревна . Одаренность как психологическая система: структура и динамика в школьном возрасте. 2006 [www.dissercat.com/content/odarennost-kak-psikhologicheskaya-sistema-struktura-i-dinamika-v-shkolnom-vozhraсте](http://www.dissercat.com/content/odarennost-kak-psikhologicheskaya-sistema-struktura-i-dinamika-v-shkolnom-vozhraсте)
4. Shatalina V.A. Revealing gifted children in the educational process // Eurasian scientific journal. - No. 12. St. Petersburg, 2015. Electronic resource: <http://journalpro.ru/articles/vyyavlenie-odarennykh-detey-v-obrazovatelnom-protse>
5. Principles and methods for identifying gifted children. Electronic resource: <http://psylist.net/praktikum/00209.htm>.